

TUPROQQA TURLI USULDA ISHLOV BERIB, YETISHTIRILGAN TAKRORIY EKIN TARIQNING VEGETATSIYA DAVRLARI DAVOMIYLIGI

Ibragimov Odiljon Olimjonovich

Farg'ona Politexnika inistututi professori q.x.f.d

Sotvoldiyev G'ayratjon Muxammadjon o'g'li

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan takroriy ekin tariq ekinida rivojlanish fazalarning o'tishi yani vegetatsiya davrlarining davomiyligi birinchi navbatta tuproqning ozuqa moddalar bilan taminlanganlik darajasiga va turli omillar-namlik, xarorat, yorug'lik, navning biologik va fizalogik xususiyatlariga, tuproqqa ishlov berish usullariga, o'simlikni yetishtirishdagi agrotexnik tadbirlarga, o'g'it meyyoriga bog'liq xolda o'zgarib boradi.

Yaxshi ishlov berilgan tuproqda o'simlik jadal o'sib rivojlanadi bu esa xosildorlikka ijobiy tasir ko'rsatmay qolmaydi. Shunday ekan tuproqqa turli usulda ishlov berib, tariqni takroriy ekin sifatida yetishtirishda vegetatsiya davrlarining davomiyligini o'rganish muxim ahamiyatga ega xisoblanadi.

Tariq ham barcha qo'ng'irboshsimonlardagidek organogenezning 12 ta bosqichi kuzatiladi. Organogenez bosqichlarining bir-biriga almashishi muhit sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan, rivojlanish tezligiga bog'liq. Qisqa kunga to'g'ri keladigan yozgi ekinlarda tariqning rivojlanishi tezroq kechadi, ya'ni havo haroratining ta'siri va ekologik-geografik guruhlarning ta'sirida. O'simlikning rivojlanishi uzun kunda biroz cho'zilib ketadi.[1;172-b]

Tariqning vegetatsiya davrida quyidagi fazalar belgilanadi: 1) urug'larning bo'rtishi, 2) unib chiqish, 3) uchinchi bargning hosil boiishi. Bunda o'sish to'xtaydi, ikkilamchi ildizlar rivojlana boshlaydi, 4) tuplanish, unib chiqishdan 15—20 kun o'tgach boshlanadi, 5) naychalash — tuplanishdan 10—12 kun o'tgach boshlanadi, 6) ro'vaklash — tuplashdan 20—25 kun o'tgach boshlanadi, 7) gullash — ro'vaklashdan 2—6 kun o'tgach boshlanadi, 8) pishish 15—20 kun davom etadi, usuv davri 55 kundan 115 kungacha.[7]

Tariq ekish muddatlari kechikishi bilan vegetatsiya davrlari yani unib chiqish-naychalash fazasigacha davomiyligi qisqaradi, unib chiqish-ro'vaklash-gullashga kelib ekish muddatlarining kechikishi rivojlanish fazalarining o'tashini tezlashtiradi [2; 72-b.]

1 -jadval

Tuproqqa ishlov berish usullari	Variantlar	Maysalash-tuplanish	Tuplanish-naychalash	Naychalash-ro'vaklash	Ro'vaklash - gullash	Gullash-Pishish	Unib chiqish-to'liq pishish
28-30 sm	1	16	12	15	5	15	70

	2						
18-20 sm	3	14	12	15	5	14	67
	4						
10-12 sm	5	13	11	14	5	13	63
	6						

Tariq o'simligining vegetatsiya davomiyligi xar bir variantning belgilanmagan uch nuqtasida 15 ta o'simlikda barcha qaytariqlar bo'yicha aniqlandi.

Tadqiqotimizda tariqning vegetatsiya davri 63-70 kunni tashkil qildi. Tuproqqa turli usul va chuqurlikda ishlov berib yetishtirilgan tariq o'simligining o'sish rivojlanishiga tasiri kuzatganimizda 28-30 sm xaydovga nisbatan 18-20sm va 10-12 sm chuqurlikda chizel qilinga variantlarda urug'lar unib chiqish muddatida farq kuzatilmadi, yani 7 kun muddatda unib chiqdi. Lekin ayrim o'sish fazalarining davomiylik mudati mos ravishda 3,5 kunga qisqardi. 28-30 sm xaydov o'tkazilgan variantlarimizda urug'lar unib chiqqandan so'ng maysalash-tuplanish davri 16 kun, tuplash-naychalash davri 12 kun, naychalash-ro'vaklash davri 15 kun, ro'vaklash-gullash 5 kun, gullash- pishish davri 15 kun davom etdi. 18-20sm chuqurlikda ishlov berilgan variantlarda 28-30 sm xaydovga nisbatan maysalash-tuplanish davri 2 kunga, gullash- pishish davri 1 kunga, 10-12sm chuqurlikda ishlov berilgan variantlarda esa maysalash-tuplanish davri 3 kunga, tuplash-naychalash va naychalash-ro'vaklash davrlari 1 kunga, gullash- pishish davri 2 kunga qisqarganligi aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tuproqqa chizel bilan yuza ishlov berilganda tariq vegetatsiya davrlari xaydov o'tkazilgan tuproqqa nisbatan qisqarib teziroq pishib yetilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva X.N. Xudayqulov J.B., "O'simiikshunoslik", "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, Toshkent-2018.
2. Сурков А.Ю. Влияние типа метелки на хозяйственно ценные признаки проса. / А.Ю.Сурков, И.В.Суркова // Научно – производственный журнал «Зернобобовые и крупяные культуры» №4 (24) 2017 г. 72
3. Захарова Е. А СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ТЕХНОЛОГИИ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ПРОСА В УСЛОВИЯХ КАШТАНОВЫХ ПОЧВ ВОЛГОГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ Волгоград 2019 В-17
4. А.Омонov "Tariq xosildorligiga ekish mudatlari va meyorlarining tasiri" Agro ilm- qishloq va suv xo'jaligi 2022-yil 2-son 11-b
5. WWW. Ziyonet
6. WWW. library.net